

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TUZISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xalilov Bahromjon Bahodirovich-

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro,

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Ubaytova Mohitobon Jo'ra qizi

BuxDU, Buxgalteriya hisobi

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb qilish, qolaversa turli davlat investorlarining diqqat-e'tiborini qozonish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini - moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy hisobot, MHXS, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti tomon harakatiga tushdi. Bu jarayonda sovetlarning buxgalteriya uslublaridan voz kechildi va moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga o'ta boshladi. Jumladan, qonun bilan quvvatlangan turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari qoshida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o'rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi. O'zbekistonda yuritilgan qonunchilik, ta'lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bilan to'la uyg'unlashuvga olib kelishi kutilgan edi. So'nggi yillarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, va o'z o'zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlariga aylanishi uchun MHXSga muvofiq o'zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish uchun mamlakatda ma'lum bir shart-sharoitlar vujudga kelishi lozim. Ushbu shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, mamlakatda bozor iqtisodiyoti elementlarining to'liq mavjudligi va biznes birliklarida dunyo standartlariga uyg'un menejment tizimining shakllangan bo'lishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, buxgalteriya hisobi menejerlarga qarorlar qabul

qilish uchun axborot etkazadi, menejmentda ishtirok etadi va menejment tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, buxgalteriya hisobi tizimida olib borilayotgan islohatlar menejment tizimi va fanidagi olib borilayotgan islohatlarga monand va uning tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, mamlakatda jahon talablari va bozor infrastrukturasi mos moliya va bank tizimi shakllangan bo'lishi lozim. Moliya va bank institutlari, qimmatbaho qog'ozlar birjalari buxgalteriya hisobi tizimi shakllani-shiga muhim darajada ta'sir ko'rsatib turadi. Jahon hamjamiyati tomonidan milliy buxgalteriya hisobi tizimini e'tirof etishi ko'p jihatdan mamlakatda shakllangan moliyaviy tuzulmalarning barqarorligi va mustahkamligiga bog'liq.

Uchinchidan, mamlakatda mustaqil, nodavlat jamoat buxgalteriya hisobi professional tashkilotlarining mavjudligi. Fikrlarimizga tayangan holda buxgalteriya hisobi masalalarini standartlashtirishda mustaqil professional institutlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan, jumladan chet el investitsiyalarini jalb qilishni rag'barlantiradigan va sarmoyadorlar-ning huquqlarini himoya qiladigan demokratik qonunlar tizimining mavjudligi..

Beshinchidan, sertifikatli, professional amaliyotchi buxgalterlar ar-miyasining mavjudligi. O'qitish, imtihonlarni topshirish tizimini va tartibini ishlab chiqish va tashkil qilish ishlarini Professional Buxgalterlar Institutiga yuklash maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, buxgalteriya hisobi atamalarini xalqaro atamalarga yaqinlashtirish. Bu borada, dunyodagi nufuzli darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish, qolaversa atamalar lug'atini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash paytida, rahbariyat xo'jalik sub'ekti faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyatini baholashi lozim. Qachonki rahbariyat xo'jalik sub'ektining faoliyatini tugatishni yoki savdoni to'xtatishni mo'ljallayotgan bo'lmasa yoki bunday choralarni amalga oshirishdan boshqa amaliy muqobil choralar mavjud bo'lmagan holat yuzaga kelmasa, xo'jalik sub'ekti moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlashi lozim. Agar rahbariyat, baholashni amalga oshirayotganda, xo'jalik sub'ekti faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyati to'g'risida ahamiyatli shubha to'g'ridirishi mumkin bo'lgan hodisalar yoki sharoitlarga tegishli ahamiyatli noaniqliklardan xabardor bo'lsa, xo'jalik sub'ekti ushbu noaniqliklarni oshkor etishi lozim. Agar xo'jalik sub'ekti moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlamasa, u ushbu fakti, moliyaviy hisobotlar qaysi asosda tayyorlanganligini hamda xo'jalik sub'ekti faoliyatning uzluksizligini ta'minlay olmaydi deb hisoblanishining sababi bilan birga, oshkor etishi lozim.

Xo'jalik sub'ekti o'zining, pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan tashqari, moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida tayyorlashi lozim.

Buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qo'llanilganda, xo'jalik sub'ekti moddalarni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar

elementlarini) sifatida tan oladi, qachonki ular Kontseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta'riflariga va tan olish mezonlariga to'g'ri kelsa.

Xo'jalik sub'ekti o'xshash moddalarning har bir ahamiyatli turkumini alohida taqdim etishi lozim. Bir biridan farq qiladiganli xususiyatga yoki vazifaga ega bo'lgan moddalarni, ular ahamiyatsiz bo'lmasa, xo'jalik sub'ekti alohida taqdim etishi lozim.

Bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirokidan kelib chiqqan holda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlar va keyin joriy aktivlar joylashtirilgan bo'lsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar likvidlilik darajasiga qarab joylashtirilgan. Shuningdek, balansning passiv qismida majburiyatlar muddatlarini hisobga olgan holda joylashtirilgan.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan shakli ko'rsatkichlari bizning mamlakatimizdagidan farq qiladi. Ushbu hisobot shaklida moliyaviy natijalar faoliyat turlari asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyat bo'yicha aniqlanadi. Mamlakatimizda esa moliyaviy natija asosiy va moliyaviy faoliyat bo'yicha aniqlanadi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu hisobot shakli turli nomlar bilan ataladi. Jumladan, «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobot deb ham nomlanadi. Ammo ular mazmun jihatdan bir-biriga juda ham yaqin.

Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot mamlakatimizda qo'llanilmaydi. Ushbu hisobot shaklini tuzish juda oddiy, shu bilan birgalikda uning ko'rsatkichlari xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy mustahkamligini belgilab beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida qaysi xo'jalik yurituvchi sub'ektda taqsimlanmagan foyda mavjud bo'lsa va uning summasi uzluksiz ravishda o'sib borsa, bu har xil moliyaviy xarakterdagi risklar uchun mustahkam zaxira jamg'armasining mavjudligini ko'rsatadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shaklida mamlakatimizdan farqli o'laroq uzoq muddatli moddiy aktivlar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli bizning mamlakatimizdagidan unchalik katta farq qilmaydi. Ammo xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati uchun o'ta muhim hisoblanadi. Uni tuzishda bevosita va bilvosita usullar qo'llaniladi.

Pul harakati to'g'risidagi hisobot sub'ektning operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatning o'z pul mablag'lariga ma'lum hisobot davri ichida ta'sirini aks ettiradi, shu davr ichida pul mablag'larining o'zgarishini tushuntiradi. Pul oqimlari to'g'risidagi qo'llash quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

- Korxonaning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyatini va tashkilotning shu kabi pul oqimlarini ishlatishga extiyojini aniqlash;
- Tashkilotning sof aktivlaridagi o'zgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (uning likvidligini va to'lov qobiliyati bilan birga) va uning o'zgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun o'z vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga ta'sir etish qobiliyatini aniqlash;

•Har xil tashkilotlarning operatsion faoliyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operatsion va xo'jalik faoliyatining hodisalari uchun har xil hisoblash usullarini qo'llanishni ikor etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodirovich, K. B. (2024). EXTERNAL FINANCING SOURCES FOR BUSINESSES. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 119-124.
2. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
3. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
4. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
5. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
6. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.
7. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
8. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
9. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
11. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
12. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
13. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
14. Egamberdiyeva, S. R., Qodirov, F. I., & Shopiyev, R. R. (2022). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARINI MHXS GA UYG

‘UNLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 353-358.

15. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.

16. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.

17. Supiyevna, B. M. (2024). O‘ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO‘LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.

18. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.

19. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).

20. Bustonovna, J. Z. (2024). DEVELOPMENT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS PROSPECTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 285-291.

21. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.

22. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.

23. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.

24. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.

25. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.

26. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.

27. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag‘batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.

28. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.

29. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.
30. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
31. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
33. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo'llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
34. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
35. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
36. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
37. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
38. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
39. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
40. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
41. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O'RNI, SALOHİYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
42. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.

43. Sadilloeyvna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.

44. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.

45. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).

46. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.

47. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.

48. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.

49. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 138-145.

50. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O' Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.

51. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.

52. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

53. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

54. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.

55. TEMPUS, I. (2016). Towards the Modernisation of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATChES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.

56. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.

57. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.